

O‘ZBEKISTON KASABA
UYUSHMALARI
FEDERATSIYASINING
TOSHKENT VILOYATI
KENGASHI
IJROIYA QO‘MITA



ЎЗБЕКИСТОН КАСАБА
УЮШМАЛАРИ
ФЕДЕРАЦИЯСИНING
ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ
КЕНГАШИ
ИЖРОИЯ ҚЎМИТА

**QARORI
ҚАРОРИ**

Nurafshon shahri
Нурафшон шаҳри

2026-yil 12-fevral

№ 03-12 “s”

**O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi IX Qurultoyining
2025-yil 1-noyabrdagi IX-10-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi IX Qurultoyining 2025-yil 1-noyabrdagi IX-10-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida viloyati Kengashi Ijroiya qo‘mitasi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi IX Qurultoyining 2025-yil 1-noyabrdagi IX-10-sonli qarori hamda unga ilova etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 17-oktyabr kuni O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda bildirgan taklif hamda tavsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bilan 2025-yilning 17-oktyabr kuni o‘tkazilgan uchrashuvda berilgan topshiriqlarning ijrosini Toshkent viloyatida ta‘minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” **ilovaga muvofiq tasdiqlansin** (ilova qilinadi).

3. **Viloyat Kengashining bo‘limlari, tarmoq kasaba uyushmalari viloyat Kengashlari hamda birlashgan qo‘mitalari raislari, mas‘ul tashkilotchilar:**

“Yo‘l xaritasi”da tegishliligi bo‘yicha belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlasin;

har oyning 1-sanasiga “Yo‘l xaritasi” ijrosi yuzasidan ma‘lumotlarni viloyat Kengashi **Tashkiliy ishlar bo‘limiga** kiritib borsin.

4. **Viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari** (L.Xolmuminova) “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha ijro holatini mas‘ullar bilan muhokama qilib, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda **viloyat Kengashi Tashkiliy ishlar bo‘limi** (L.Xasanov) bilan birligida “Yo‘l xaritasi” ijrosi yuzasidan har oyning 5-sanasiga qadar tahliliy ma‘lumotni viloyat Kengashi raisiga hamda Federatsiya apparatiga kiritib borish vazifasi yuklansin.

5. Viloyat Kengashi Yoshlar bilan ishlash bo'limi (A.Nurimov), "Ishonch" va "Ishonch-Доверие" gazetalari tahririyatining Toshkent viloyati bo'yicha muhbiri (X.Egamberdiyeva) bilan birga "Yo'l xaritasi" da belgilangan tadbirlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi



S.Fayziyeva

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bilan 2025-yilning 17-oktyabr kuni o'tkazilgan uchrashuvda berilgan topshiriqlarning ijrosini Toshkent viloyatida ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

Band T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1/2	Mahalla darajasidagi ishlarni manzilli tashkil etish, shu jumladan, "Ayollar daftari" tizimi doirasida Kasaba uyushmalari bilan O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyati boshqarmasi hamkorligini yanada mustahkamlash bo'yicha ishlarni tashkil etish.	1. O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi o'rtasida mahalla darajasidagi ishlarni manzilli tashkil etish, shu jumladan, "Ayollar daftari" tizimi doirasida ishlarni tashkil etish yuzasidan hamkorlikdagi chora-tadbirlar ishlab chiqish va uning asosida ishlarni tashkil etish. 2. Hamkorlik chora-tadbirlar asosida mahalla darajasidagi ishlarni manzilli tashkil etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish.	fevral 2026-yil davomida	Viloyat Kengashi raisi o'rinbosarlari (O'.Rashidov, L.Xolmuminova) O'zbekiston mahallalari uyushmasining Toshkent viloyat boshqarmasi (kelishuv asosida) Mehnat huquq inspektori (M.Mirzayev)
2/4	"Kasaba uyushmalari – ayollar manfaati yo'lida" shiori asosida xotin-qizlar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha ishlab chiqilgan yangi tizim asosida chora-tadbirlar dasturini tayyorlash.	1. Xotin-qizlar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha ishlab chiqilgan yangi tizimni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. 2. O'zKUF tomonidan ishlab chiqilgan "Xotin-qizlarning mehnat muhofazasi uslubiy qo'llanma"sini barcha tarmoq	fevral aprel	Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev), Mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya

		kasaba uyushmalari, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitalariga yetkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish.		qilish bo'limi (N.Bektashev)
3/5	Mehnat jamoalaridagi genderga oid audit natijalarini muhokama qilish , ish beruvchilar bilan birgalikda xotin-qizlarga yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha amaliy choralarni belgilash.	<p>1. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining yillik rejasida belgilangan muddatlarda Genderga oid auditni sifatli o'tkazib borish.</p> <p>2. Audit natijalarini mehnat jamoalarida muhokama qilib borilishini ta'minlash.</p> <p>3. Auditorlar guruhining tavsiyalarini tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilishini va tadbiriq etish choralari ko'rilishini tashkil etish.</p> <p>4. Audit natijalari bo'yicha ish beruvchilar bilan birgalikda xotin-qizlarga yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish.</p>	<p>2026-yil alohida grafik asosida</p> <p>har chorakda</p> <p>yil davomida</p> <p>yil davomida</p>	<p>Mehnat huquq va texnik inspektorlarii (M.Mirzayev, Sh.Xazratkulov), Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev),</p> <p>Tarmoq kasaba uyushmalarining viloyat Kengashlari va birlashgan qo'mita raislari, mas'ul tashkilotchilar</p>
4/6	“Ayollar daftari” tizimining yangi bosqichi bo'yicha olib boriladigan ishlarni tashkil etish.	<p>1. “Ayollar daftari” tizimiga oid qabul qilingan normativ hujjatlarning joylarda mutasaddilar tomonidan bajarilishini monitoring qilish.</p> <p>2. Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish.</p>	<p>yil davomida</p> <p>yil davomida</p>	<p>Viloyat Kengashi raisi o'rinbosarlari (L.Xolmuminova) Toshkent viloyati “Ayollar daftari” shtabi a'zolari</p>

5/7	<p>Gender tenglikni ta'minlash maqsadida tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqilgan manzilli strategiyalar asosida ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish.</p>	<p>1. Tarmoq kasaba uyushmalari vakillari hamda uning ijtimoiy sherik tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh shakllantirish va joylarda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish.</p> <p>2. Tarmoq, hududiy jamoa kelishuvlari hamda jamoa shartnomalaridagi "Ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarning mehnatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularga beriladigan qo'shimcha imtiyozlar va kafolatlar" bo'limi ijrosini mehnat jamoalarining umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish.</p> <p>3. Ish beruvchilar bilan hamkorlikda korxonalar, tashkilot va muassasalarda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish.</p> <p>4. Genderga oid audit natijalariga doir axborot va takliflarni viloyat Kengashi raisi hamda Federatsiyaga kiritishni ta'minlash.</p>	<p>mart</p> <p>1-chorak</p> <p>2-chorak</p> <p>Auditdan keyin 10 ish kunida</p>	<p>Viloyat Kengashi Xotin-qizlar Kengashi (R.Gaziyeva) Mehnat huquq va texnik inspektorlari (M.Mirzayev, Sh.Xazratkulov), Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev), Tarmoq kasaba uyushmalarining viloyat Kengashlari va birlashgan qo'mita raislari, mas'ul tashkilotchilar</p>
6/8	<p>Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilishda kasaba uyushmalarining yarashtiruvchi, murosaga keltiruvchi bo'g'in sifatidagi faolligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rish.</p>	<p>1. Sohaga oid xorijiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotlarining amaliyoti va qonunchiligini o'rganish.</p> <p>Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish:</p> <p>a) qonun normalari mehnat nizolarini sudga qadar yarashtiruv institutida ko'rib chiqishni tartibga solinishi;</p> <p>b) yarashtiruv komissiyalari kasaba uyushmalarining qaysi bo'g'inlarida</p>	<p>fevral</p>	<p>Mehnat huquq inspektori (M.Mirzayev) Mehnat texnik inspektori (Sh.Xazratkulov) Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan</p>

		<p>faoliyat yuritilishiga, komissiyaning tarkibiga;</p> <p>v) protsessual tartibga;</p> <p>g) komissiya faoliyatining natijadorligiga.</p> <p>2. Yarashtiruv jarayonining natijadorligiga erishishni ta'minlash maqsadida ruxshunos-mutaxassislar bilan maslahatlashuv o'tkazish.</p> <p>3. Ruxshunoslar va tajribali sudyalarda ishtirokida seminar trening o'tkazish.</p> <p>4. Viloyat Kengashida yarashtiruv guruhini tuzish va sinov loyihasini ishga tushirish.</p> <p>5. Sinov loyihasini natijalarining tahlili bo'yicha keyingi choralarni ko'rish.</p>	<p>mart</p> <p>aprel</p> <p>may-iyun</p> <p>avgust</p>	<p>ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi (Sh.Axmedova), Tarmoq kasaba uyushmalarining viloyat Kengashlari va birlashgan qo'mita raislari, mas'ul tashkilotchilar</p>
7/9	<p>Mehnat foyiati bilan bog'liq baxtsiz hodisalar hisobotini yuritish, uning sabablarini tahlil qilish, tekshirish va yechim topish bo'yicha Hukumat qarori loyihasiga takliflarni O'zKUFga taqdim etish.</p>	<p>1. Ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish.</p> <p>2. Takliflarni belgilangan tartibda O'zKUFga kiritish.</p>	<p>mart</p> <p>may</p>	<p>Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev)</p>

8/10	<p>Viloyat Kengashi hamda viloyat hokimligi bilan mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash, ishlab chiqirishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish va kasb kasalliklarining profilaktikasi yuzasidan hamkorlikni yanada mutsahkamlash bo'yicha "Manzilli dastur" ishlab chiqish.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tegishli mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhini tuzish. 2. Ishchi guruhi tomonidan "Manzilli dastur" loyihasini ishlab chiqish. 3. Hujjat loyihasini Viloyat Kengashi tomonidan viloyat hokimligi bilan birga kelishish va tasdiqlash choralarini ko'rish. 4. Har bir sodir bo'lgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni N-1 shaklidagi dalolatnomalar nusxalarini yig'ish va tahlil qilish. 5. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalar bo'yicha tahliliy byulleten tayyorlash va mutasaddi tashkilotlarga taqdim etish. 6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar yuzasidan O'zKUFga tahliliy axborot kiritish. 	<p>fevral</p> <p>fevral</p> <p>mart</p> <p>yil davomida</p> <p>har chorak</p> <p>20-iyun, 20-dekabr</p>	<p>Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev), Mehnat huquq inspektori (M.Mirzayev) Tarmoq kasaba uyushmalarining viloyat Kengashlari va birlashgan qo'mita raislari, mas'ul tashkilotchilar</p>
9/11	<p>O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Mamlakat dasturi asosida ishlarni tashkil etish va olib borish.</p>	<p>O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Mamlakat dasturini bajarish bo'yicha korxonalar, tashkilot va muassasalarda olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish hamda faol ishtirok etish.</p>	<p>Yil davomida</p>	<p>Mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'limi (N.Bektashev) Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev), Mehnat huquq inspektori (M.Mirzayev)</p>

10/12	<p>Halol va fidoyi mehnatni hamda mehnat munosabatlarida qonuniylikni ta'minlashga oid targ'ibot ishlarini kuchaytirish bo'yicha media-reja ishlab chiqish.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yilning har choragi uchun alohida Media-reja ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Media-reja ijrosini monitoring qilish. 3. Har oy yakuni bo'yicha Media-reja ijrosi bo'yicha ma'lumotni viloyat Kengashi raisi hamda Federatsiyaga taqdim etish. 	<p>fevral yil davomida har oyning 25-sanasiga</p>	<p>Yoshlar bilan ishlash bo'limi (A.Nurimov)</p>
11/14	<p>Toshkent viloyati Nurafshon shahrida tashkil etilgan "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bog'i"da obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini davom ettirish.</p>	<p>"Kasaba – obod makon" MChJ bilan hamkorlikda bog' hududida zaruratga ko'ra daraxt va manzarali ko'chatlar ekish, gulzorlar tashkil qilish, agrotexnik ishlov berish.</p>	<p>yil davomida</p>	<p>Viloyat Kengashi raisi o'rinbosarlari (O'.Rashidov) Tarmoq kasaba uyushmalarining viloyat Kengashlari va birlashgan qo'mita raislari, mas'ul tashkilotchilar</p>
12/15	<p>Korxonalar va tashkilotlarda kasaba uyushmalari tashabbuslari bilan ishxona va mahallalarda yashil hududlarni kengaytirish hamda tozalik va obodonchilik ishlari tashkil qilish.</p> <p>Korxonalar va tashkilotlardagi kasaba uyushmalari jamoalari o'rtasida "Ekologik faol kasaba uyushmasi jamoasi" tanlovini o'tkazish.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Korxonalar va tashkilotlar hududida, mahallalarda yashil maydonlarni kengaytirish hamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etish bo'yicha reja ishlab chiqish. 2. Reja asosida yashil maydonlarga ekilgan ko'chatlar hisobini va parvarishini olib borish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha ma'lumotni Federatsiya rahbariyatiga taqdim etish. 4. "Ekologik faol kasaba uyushmasi jamoasi" tanlovi Nizomini ishlab chiqish bo'yicha takliflarni O'zKUFga taqdim etish. 5. Tasdiqlangan Nizom asosida tuman (shahar) kesimida tanlovni tashkil etish va 	<p>mart</p> <p>yil davomida</p> <p>har chorakda</p> <p>mart</p> <p>mart-may</p>	<p>Madaniy-ma'rifiy va sport ishlari bo'limi (B.Xolmurzayev) Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Erbutayev), Tarmoq kasaba uyushmalarining viloyat Kengashlari va birlashgan qo'mita raislari, mas'ul tashkilotchilar</p>

13/16	<p>Viloyat hududidagi Erkin iqtisodiy zonalarda yosh farzandi bo'lgan xotin-qizlarga munosib ish o'rinlarini yaratish maqsadida ularning farzandlari uchun turli ijtimoiy ob'ektlar (<i>bog'cha, sport zali, bolalarga vaqtinchalik qarab turish xizmatlari kabilar</i>) barpo etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p>	<p>o'tkazish hamda g'oliblarni taqdirlash.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhini shakllantirish. 2. Erkin iqtisodiy zonalarda ishlaydigan va ijtimoiy ob'ektlarga e'tiyoj mavjudligini o'rganish. 3. O'rganish natijalariga ko'ra ijtimoiy ob'ektlar barpo etish yuzasidan taklif ishlab chiqish. 	<p>fevral fevral-mart aprel</p>	<p>Viloyat Kengashi raisi o'rinbosarlari (O'.Rashidov, L.Xolmuminova), Mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'limi (N.Bektashev), Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalar xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining Toshkent viloyati bo'yicha mas'ul tashkilotchisi (B.Mirzayev), Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchisi (R.Gaziyeva), Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchisi (R.Tojiboyev),</p>
-------	---	---	---	---

